

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10951210>

MAHALLA INSTITUTI TAKOMILLASHUVI TARAQQIYOTGA XIZMAT QILADI

Ruziqulov Abdulla Aliqulovich

Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi Navoiy viloyat
hududiy bo‘linmasi rahbari, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori PhD

Elektron pochta manzili: abu.x2012@mail.ru

abu.x2014@umail.uz

Annotation: Maqolada mahalla tushunchasi, huquqiy asoslari va ularining shakllanish tarixi, xorijda va O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ularning faoliyati atroflicha yoritilgan.

Keywords: mahalla, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, inter vires, vakolat, qonun.

УЛУЧШЕНИЕ ИНСТИТУТОВ МАХАЛЛИ СЛУЖИТ РАЗВИТИЮ

Рузикулов Абдулла Аликулович

Руководитель Навоийского областного подразделения центра анализа демократических процессов, доктор философских наук в области политических наук

Электронный адрес: abu.x2012@mail.ru

abu.x2014@umail.uz

Аннотация: В статье освещено понятие добрососедства, его правовые основы и история их становления, органы самоуправления за рубежом и в Узбекистане и их деятельность.

Ключевые слова: махалля, органы самоуправления, inter vires, полномочия, закон.

IMPROVING MAHALLA INSTITUTIONS SERVES DEVELOPMENT

Ruzikulov Abdulla Alikulovich

The Center for Analysis of Democratic Processes, Navoi Region Head of the territorial division, Doctor of Philosophy in Political Sciences, Ph.D.

Email address: abu.x2012@mail.ru

abu.x2014@umail.uz

Abstract: V state osveshcheno concept dobrososedstva, ego pravovye osnovy i istoriya ix stanovleniya, organy self-management za rubejom i v Uzbekistane i ix deyatelnost.

Keywords: mahalla, self-government bodies, inter vires, power, law.

Asosiy qism. Asrlar davomida shakllangan va bugungi kunda odamlar rasman tan olib, unga murojaat qiladigan bir qancha tashkilotlar mavjud. Xuddi shunday tashkilotlardan biri fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlaridir. Bugun ushbu tashkilot jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh bo‘g‘inlaridan biri desak adashmaymiz.

Amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat dasturlarning asosiy bandlari ham aynan mahallalar kesimida amalga oshirilishiga qaratilganligi ham bunga yaqqol misoldir.

Mahalla haqida gapirishdan oldin bu atamaning ma’nosini anglab olish maqsadga muvofiqdir.

“Mahalla” atamasi arabcha so‘zdan olingen bo‘lib, “o‘rin-joy” degan ma’noni anglatgan. U turli mintaqalarda mahallot (joy), guzar, jamoa, elat, elod nomlari bilan atalib kelingan. Adabiyotlarda mahallalarning ko‘p ming yillik tarixga ega ekanligi haqida ma’lumotlar uchraydi. Masalan, Narshaxiy o‘zining “Buxoro tarixi” asarida Buxoroda bundan 1100 yil ilgari bir qancha mahallalar bo‘lganini qayd etib o‘tgan. Alisher Navoiy o‘zining “Hayrat ul-abror” asarida mahallani “mahalla shahar ichidagi shaharcha”dir deb ta’riflaydi va Hirot shahri yuz shaharcha ahamiyatiga ega bo‘lgan mahallalardan tashkil topganligini aytib o‘tadi. Mahallalar, ayniqsa, Amir Temur davrida ravnaq topgan. Fuqarolarning kasb-kori asosida shakllangan va shunga qarab nomlangan. Masalan, zargarlik, misgarlik, ko‘nchilik, pichoqchilik, qoshiqchilik, temirchi, egarchi, taqachi va h.k. Mahalla qadimda mahalliy hokimiyatning o‘ziga xos bir shakli, ko‘rinishi tarzida faoliyat ko‘rsatgan. Mahallani boshqarish jamoatchilik asosida olib borigan va o‘zining yozilmagan ichki tartib-qoidalari mavjud bo‘lib, ushbu tartib-qoidalalar hamma uchun birdek qonuniy hisoblangan.¹

¹ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/mahalla-uz/>

Bugungi kunda respublikamizning bosh qomusida mahallaning maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlanib qo‘yilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 127-moddasida “Shaharchalar, qishloqlar va ovullarda, shuningdek shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular raisni saylaydi”.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o‘ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli.

Davlat fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishida ko‘maklashadi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari saylovi tartibi, ularning faoliyatini tashkil etish va vakolatlari qonun bilan belgilanadi.¹

Ko‘p o‘rinlarda o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faqatgina bizda bor degan fikrlarni eshitamiz. Ammo bu gaplar qanchalik haqiqatga yaqin degan haqli savol tug‘iladi. Dunyoning rivojlangan davlatlarida bu masalaga qanday qaraladi? Keling shunga doir ma’lumotlarga e’tibor qaratsak.

Bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda ko‘p xollarda duch kelayotgan jahon amaliyotida ma’lum bo‘lgan mahalliy davlat hokimiyati tashkiloti modellarining tasnifi mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari (boshqaruv) va markaziy davlat organlari o‘rtasidagi munosabatlarga asoslanadi.

Ushbu yondashuvga muvofiq mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning to‘rtta asosiy modelini ajratish mumkin: anglo-sakson, kontinental, aralash va sovet.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning anglosakson ya’ni (klassik) modeliga asosan bir xil huquqiy tizimga ega bo‘lgan mamlakatlarda jumladan, Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada, Hindiston, Avstraliya, Yangi Zelandiya va boshqalarda keng tarqalgan.

Ushbu modelning asosiy xususiyatlari: a) rasmiy avtonomiya va mahalliy davlat hokimiyati organlarining mustaqilligi; b) mahalliy va o‘zini o‘zi boshqarish organlarini nazorat qiluvchi markaziy hokimiyatning mahalliy vakillarining yo‘qligi.

Ushbu modelga asoslangan mamlakatlarda markaziy hukumat va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘rtasidagi munosabatlar “inter vires” (berilgan vakolatlar doirasida harakat qilish) tamoyili bilan belgilanadi. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari faqat qonunda aniq belgilangan harakatlarni amalga oshirishi mumkin.

¹ <https://lex.uz/docs/6445145>

Boshqa barcha harakatlar vakolat doirasidan tashqari qilingan (inter vires) hisoblanadi va sud tomonidan qonunga xilof deb topilishi mumkin.

Klassik munitsipal shakllarning vatani bo‘lgan Buyuk Britaniyada mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining vakolatlari parlament tomonidan ishlab chiqiladi va ular parlamentning quyi tashkilotlari (yordamchilar, unga bo‘ysinuvchi ijrochilar) ekanligi shubhasiz haqiqatdir.¹

AQSHda mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarning konstitutsiyaviy maqomini belgilashda Amerika huquqiy doktrinasining o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi. Bu holatda boshlang‘ich nuqta “munitsipalitetlar-shtatlarning qo‘yi bo‘g‘inlari” formulasidan foydalaniladi. Shu bilan birga o‘zini-o‘zi boshqarish tamoyili, Amerikaning aksariyat shtatlari konstitutsiyalarida mustahkamlangan o‘zini-o‘zi boshqarish tamoyiliga asoslanadi va munitsipal hokimiyat organlarining mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni o‘zlariga berilgan vakolatlar doirasida mustaqil ravishda, shtatlar aralashuviz hal qilish huquqini nazarda tutadi.

Ushbu model o‘zini o‘zi boshqarish organlarini nazorat qilish uchun markazdan tayinlangan mahalliy mansabdar shaxslarning bo‘lishini nazarda tutmaydi. Mahalliy Kengashlar markaziy organlar vakolatiga kirmaydigan masalalarni qonun doirasida, odad (o‘rnatilgan amaliyot) va sud amaliyoti doirasida mustaqil va o‘z mas’uliyati doirasida hal qiladi. Mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari ustidan nazorat qonun doirasida markaziy hokimiyat vakolatiga kirmaydigan masalalarni sud presedenti, mustaqil ravishda va o‘z javobgarligida hal qiladi. Mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatini nazorat qilish bilvosita: ularning faoliyatini moliyalashtirish orqali; bevosa tarmoq vaziriligi orqali o‘tkaziladigan tekshirishlar orqali; adaptiv qonunlar qabul qilish orqali (parlament namunaviy qonunlar qabul qiladi, mahalliy hokimiyat organlari esa ularni o‘z hududlarida mahalliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘zgartirishlar bilan kuchga kiritadi) va sud nazorati orqali amalga oshiriladi.²

O‘z o‘zidan ko‘rinib turibdiki barcha mamlakatlarda o‘zini-o‘zi boshqarish organlari o‘ziga xos tarzda mavjud bo‘lib umumiy o‘xshashlik tomonlarini ko‘rishimiz mumkin.

Bugun taraqqiyotning yangi bosqichiga chiqqan O‘zbekiston Respublikasida inson va uning manfaatlarini himoya qilish, ularning normal turmush tarzini ta’minlash borasidagi islohotlarda mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organi bo‘lmish mahallaning o‘rni va roli beqiyosdir.

¹ <https://helpiks.org/9-59618.html>

² <https://helpiks.org/9-59618.html>

Bugun bu organga yaratilib berilayotgan imkoniyat va vakolatlar bejizga emas, joylardagi muammolarni o‘rganish va o‘z vaqtida hamda o‘z joyida yechim topish dolzarbligicha qolmoqda.

Albatta sohadagi islohotlarni amalga oshirish jarayonida bir vaqt ni o‘zida sohadagi muammoli vaziyatlar ham respublikamizda davlat rahbari tomonidan ham ko‘rsatib o‘tilmoqda va muhokamalar qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023 yil 26 sentyabr kuni mahallabay ishlash tizimini kuchaytirish yuzasidan videoselektor ham xuddi shu masalaga bag‘ishlanganligi ham bejizga emas.

Perzident Shavkat Mirziyoyev barcha darajadagi dasturlar to‘g‘ridan to‘g‘ri aholi talabini o‘rganish orqali ishlab chiqilayotganligi va o‘z o‘rnida aynan o‘sha joylarda amalga oshirilayotgani, buning uchun mahallalarga ko‘plab vakolatlar, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar berilayotganini ta’kidladi.

“Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektoridan iborat “beshlik tizimi” tashkil etildi. Lekin ularning o‘zaro muvofiq ishlashida kamchiliklar, juda ko‘p takrorlanishlar bor. Ijtimoiy maqsaddagi mablag‘lar ba’zan samarasiz yo‘naltirilyapti. Ehtiyojmand aholining masalasini hal qilish viloyat va respublika idorasiga bog‘lanib qolgan. Mahalla xodimlari faoliyatini baholash mezoni yo‘q. Ularning ko‘p vaqt ni “qog‘oz to‘ldirish” va majlislarga ketyapti”, — dedi prezident.¹

Islohotlarni amalga oshirish bilan birgan uning samaradorligi va o‘z vaqtida bo‘lishini ta’minalash hamda davlat tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida mahalla “beshlik tizimi” takomillashtirish zaruriyati mavjudligi ko‘zga tashlandi.

O‘z o‘rnida davlatimiz rahbari sohadagi kamchilik va yechimini kutib turgan muammolarnimuhokama qilish bilan birga tegishli takliflarni ham o‘rtaga tashlamoqda. Shavkat Mirziyoyev mahalladagi beshlik “mahalla yettiligi” ga aylanishini ta’kidlagan. Endilikda ularning safiga soliqchi va ijtimoiy xodim ham kiritiladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ta’kidlanishicha, ehtiyojmand aholini ro‘yxatga kiritish, moddiy yordam, subsidiya va kredit ajratish kabi 70 dan ortiq masalalar, tuman va viloyat idoralariga chiqmasdan, mahallaning o‘zida jamoaviy hal qilinadi. SHuningdek, Bandlik, Tadbirkorlik va Kasanachilik jamg‘armalari mablag‘lari har bir mahallaga taqsimlab beriladi.²

SHuni alohida ta’kidlash lozimki “mahalla yettiligi”ga soliqchi va ijtimoiy xodimning kirganligi joylardagi ijtimoiy himoya tizimini hamda soliq va moliyaviy

¹ <https://www.gazeta.uz/uz/2023/09/27/mahalla/>

² <https://www.gazeta.uz/uz/2023/09/27/mahalla/>

masallardagi muammolar o‘z joyida yechim topilishi bilan birga ularga bu borada mutaxassis tomonidan amaliy yordam berishi orqali islohotlar samaradorligiga erishish imkonini kengaytiradi.

Umuman olganda, bu institut rivoji to‘xtab qolmaydi, albatta rivojlangan davlatlar va bizning mentalitetimiz va iqtisodiy o‘sishimizga yaqin bo‘lgan davatlarning ham tajribalari o‘rganilib, takomillashuv jarayonlari davom etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati/ References

1. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. Ми все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан. Вступление на торжественной церемонии вступления в должность Президента Республики Узбекистан на совместном заседании палат Олий Мажлиса / Ш.М. Мирзиёев. – Ташкент : Ўзбекистон, 2016. - 56 с.
2. Организация местного самоуправления. - М.: Инфра-пресс, 1988. - С. 38.
3. Karimov I.A. Uzbekiston iktisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. Toshkent. «Uzbekiston», 1996.- 175-6.
4. SHadmanova S., Axmedov T. Mahalla komissiyalari faoliyatida transformatsion jarayonlar // Demokratlashtirish va inson huquqlari. –№3. – 2014. – B. 62.
5. Yusupov E., Yusupov O‘. Oila – ma’naviyat bolog’i. –T., 2003. –B. 28-29.
6. Karimov I. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1- jild. –T.: O‘zbekiston, 1996. –B. 292.
7. Mahalla: fukarolar o‘zinni o‘zi boshkarishning huquqiy asoslari (mahallalar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjalari to‘plami). - T.: «Mahalla» xayriya jamg’armasi, 2003. - 109-110-66
8. <https://lex.uz/docs/6445145>
9. <https://helpiks.org/9-59618.html>
10. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/09/27/mahalla/>